



## **“Vatanni madh etib” eng yaxshi videoroliklar tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi barcha talaba-yoshlar o'rtasida **“Vatanni madh etib”** eng yaxshi videoroliklar tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. **“Vatanni madh etib”** eng yaxshi videoroliklar tanlovida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar o'zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

### **II. Tanlovning maqsadi va vazifalari**

3. Tanlovning asosiy maqsadi – talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O'zbekistonimizning qadimiy va boy tarixi, madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish, yoshlarimizni mardlik, jasorat va matonat ruhida tarbiyalash, ularni o'z iqtidorlarni namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Tanlovning vazifasi – iqtidorli talabalarning ijodiy ishlari, aktyorlik, montajyorlik, rejissyorlik va ijodkorlik mahoratlarini qo'llab quvvatlash, yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

### **III. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish**

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarining 1-5 nafargacha talaba-yoshlaridan tashkil topgan jamoalari yoki yakka tartibda ishtirok etadi.

5. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish, Respublika tashkiliy ishchi guruhi hamda oliy ta'lim tashkilotlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

6. Tanlov 2 bosqichda tashkil etiladi.

1-bosqich oliy ta'lim tashkilotlarining o'zida fakultetlararo saralash bosqichi va 2-respublika final bosqichi. Tanlovning barcha bosqichlari mart-aprel oylari davomida o'tkaziladi.

7. Tanlovning 1-bosqichida oliy ta'lim tashkilotlaridan tuzilgan Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra faqat 1 ta jamoa yoki yakka ishtirokchining ijodiy ishlari tanlovning birinchi bosqichi o'tkazilgan kundan boshlab 3 kun davomida respublika bosqichiga yuboriladi va 3 kundan kechikkan ishlar qabul qilinmaydi.

8. 2-Respublika final bosqichida Hakamlar hay'ati tarkibi tuziladi, oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan ishlar ko'rib chiqiladi va g'oliblar aniqlanadi.

#### **IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

9. Tanlangan mavzu quyidagi yo'nalishlardan biriga bo'lishi talab etiladi:  
milliylikni targ'ib qilish, ularni milliy merosimiz va qadimiy urf-odatlarimiz bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan bo'lishi;

yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhini oshirishga qaratilgan bo'lishi;

O'zbekistonning tarixi va bugungi kuni, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar v.h haqida bo'lishi kerak;

taqdim etiladigan videoroliklar soni 1 ta, davomiyligi 30 soniyadan – 1:00 daqiqagacha MPEG-4 formatda;

videorolik tasvirida 70-80 foizgacha jamoa (yoki yakka tartibda) a'zolarining aks (ko'rinishi) etishi shart;

mavzuga mosligi, g'oyaning dolzarbligi, videorolik tanlov talablariga javob berishi hamda unda aks ettirilgan voqea-hodisaning mazmun-mohiyati, ahamiyati to'liq ochib berilishi va tugallangan bo'lishi, musiqa foni, video-effektlardan foydalanilganligi, kreativlik, ishning uslubiy jihatdan o'ziga xosligi, ishtirokchilarning aktyorlik mahoratlari, nutqi va suxandonliklari inobatga olinib Hakamlar hay'ati tomonidan 1 balldan 30 ballgacha tartibda baholanadi.

10. Videorolikda yoritilayotgan mavzu va ta'lim tashkiloti nomi ko'rsatilishi mumkin hamda suratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur, uskunalardan foydalanish ishtirokchining ixtiyoriga havola etiladi.

#### **V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

11. Oliy ta'lim tashkilotlarida g'olib bo'lgan 1-o'rinni egallagan talabalarning hujjatlari (bayonnomasi va qarori, g'olib bo'lgan talabaning ijodiy materiallari – videoroligi Respublika tashkiliy ishchi guruhiga taqdim etiladi. Ijodiy ishlar elektron arxivlangan (arxiv nomi ta'lim tashkiloti nomi bilan, yoki fleshka) taqdim etiladi.

#### **VI. Mualliflik huquqlari**

12. Tanlovda ishtirok etayotgan videoroliklarda mualliflik huquqlari buzilganda, buning uchun ishni tanlovga taqdim etgan oliy ta'lim tashkiloti, ishtirokchi yoki ishtirokchi jamoa javobgar hisoblanadi.

13. Videorolikda ishtirokchilarning ijodiy ishlari boshqa mualliflik video, reklama roliklari, kinematografik asarlaridan nusxa olishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan ishlardan tanlovni yoritish, to'plam yaratish va tarqatish maqsadida foydalanishlari mumkin.

## VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

15. **“Vatanni madh etib”** eng yaxshi videoroliklar tanlovining final bosqichida 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan ishtirokchi yoki jamoalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning diplomi hamda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan (*daromad solig'i qo'shib hisoblangan*) quyidagi tartibda:

**1-o'rin – 20 million so'm,**

**2-o'rin – 15 million so'm,**

**3-o'rin – 10 million so'm** pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

## VII. Yakuniy qoidalar

16. Davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

17. Tanlov ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida hamda Markaziy televideniyelarda yoritiladi.

18. Tanlovga Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin